

O'ZBEKISTONDA SOLIQ YUKINING SOLIQ TO'LOVCHILAR
FAOLIYATIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI

Suyunov Axmadjon Xujamurodovich
O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi Magistranti

Annotatsiya: Maqolada soliq yukini soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri o'rganilgan bo'lib, unda milliy iqtisodiyotda soliq yukini hisoblash zaruriyati, iqtisodiyotda soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini taqsimlanishi ko'rib chiqilgan, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarda soliq yukini hisoblash yo'nalishlari nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda va etakchi xalqaro moliya inctitullari, ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish macalalari, Hususan, soliq yukini pasaytirish, soliq qarzdorligini kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliqlarning o'z muddatida to'lanmaganligi uchun penyalar hisoblash mexanizmi va miqdorining optimal yo'llarini ishlab chiqish yuzacidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Soliq tizimi muammolari ichida soliq yukinianiqlash markaziy o'rinni egallaydi. U o'zida ma'lum davlatning soliq siyosati va tizimini pirovard bahosini aks ettiradi, u mamlakat soliq islohotining natijaviy ko'rsatkichi bo'lib, iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi oqilona soliq tizimi soliq to'lovchilarning ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, xo'jalik yuritishning samarali yo'llarini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliq to'lovchining soliq yuki ko'rsatkichi mamlakat soliq tizimining sifatini baholash uchun yetarli bo'ladi. Soliq yuki mamlakat soliq tizimi ko'rsatkichlarining majmuasini ifodalaydi. Alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki boshqa soliq to'lovchilarning daromadidan muayyan foizi davlatga soliq yoki to'lov shaklida to'lanadi.

XVIII asrda yashab, ijod qilgan A.Smit soliq yuki darajasi bilan davlat byudjetiga tushuvchi mablag'lar o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor berib:

«Davlat yig'ib olinishi qiyin bo'lgan soliqlarni yuklashdan ko'ra, soliq yukini pasaytirishdan ko'proq yutadi. Bo'sh qolgan mablag'lar esa kelgusida g'aznaga soliq to'lanadigan qo'shimcha daromad sifatida qolishi mumkin. Shu bilan birga davlatning

jazolash va majburiy to'latish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlari kamayib, soliq to'lovchilar ushbu to'lovlarni osonlik bilan amalga oshirishlari mumkin»[1], deb aytib o'tgan.

Ikki yuz yildan ortiq davr mobaynida moliya fani soliqlarning aholi daromadlari va iqtisodiyotga ta'siri masalasini o'rganmoqda. Shu paytgacha, olimlar soliqqa tortish darajasining asosiylikini va soliq yuki ko'rsatkichini belgilash masalasini aniqlashtirishga harakat qilmoqdalar.

XVIII-XIX asrlarda xorijlik olimlar byudjet va milliy daromad o'rtasidagi nisbatni, xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan soliq olish o'lchamlarini tahlil qilib berishgan. Soliq yuki ko'rsatkichi va iqtisodiyotga ta'siri haqida ilk bor XVIII asrda ishora qilingan. Bu borada F.Yusti soliq yukini byudjet va davlatning milliy daromadi o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan makrodarajada o'rgangan. Shu o'rinda u mamlakat byudjeti milliy daromadning 1/6 qismini tashkil qilishi kerak degan fikrni olg'a surgan[2]. K.Gok davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari bilan milliy daromad o'rtasidagi nisbatlarini asoslab berdi. U aniq mamlakat uchun real bo'lgan, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida haqqoniy bo'lgan soliq yukini yagona, universal va shu bilan birga optimal ko'rsatkichi bo'lishi mumkin emas deb hisoblagan[3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, ayni bir mamlakat yoki soliq to'lovchilar uchun soliq yuki ko'rsatkichini aniq va optimal aniqlash mumkin emas, buni faqat empirik yo'l bilan aniqlash mumkin. Chunki, boshqacha aniqlashning imkoni yo'q. Alohida bir mamlakat uchun soliq yukini konkret aniqlashning yagona metodologiyasining o'zi mavjud emas.

Birinchi jahon urushidan so'ng reparaatsion to'lovlar miqdori, ittifoqdoshlar qarzlarni to'lash uchun soliq yuki og'irligini o'lchashning aniq usullarini ishlab chiqish zaruriyatini tug'dirdi. Ushbu usullarning maqsadi umumiy iqtisodiyotda, aholining alohida ijtimoiy guruhlari kesishmalarida va ishlab chiqarish tarmoqlari doirasida kelgusida soliq yuki og'irligini o'rganish uchun asos yaratib berdi. Iqtisodiyotda nazariy va amaliy jihatdan soliq yukiga qiziqish bejiz emas. Mamlakat uchun soliq yuki ko'rsatkichini hisoblashning zaruriyatini sxematik ravishda quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

Birinchiidan, soliq yukini hisoblash va aniqlash har bir davlatning soliq siyosatini ishlab chiqishi uchun kerak. Eski soliqlarni bekor qilib, yangi soliqlarni joriy etish, soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini belgilash orqali davlat iqtisodiyotga bosim o'tkazishga yo'l qo'ymaydi. Makroiqtisodiy nuqtai-nazardan davlat soliq yuki orqali byudjetning daromad qismini, soliqqa tortish bazasini va iqtisodiyotga soliqlarning ta'sirini belgilashda foydalaniladi.

Ikkinchidan, soliq yuki ko'rsatkichi davlatning boshqa turli davlatlar soliq yuki va soliqlari ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilish uchun kerak. Mamlakat hududida ishlab chiqarishni joylashtirish, investitsiyani taqsimlash hamda kapital harakatini

yo'lga qo'yish uchun zarur. Shuningdek, mamlakat ichkarisida va hududlar bo'yicha ham qiyosiy tahlilni olib borish uchun bu ma'lumotlardan foydalaniladi.

Soliqqa tortishni bosqichma-bosqich o'zgartirib borish muhim omilga – turli davrlardagi soliq yukini aniqlab olishga imkon yaratadi. Soliq yuki soliqlarning jamiyat hayotida tutgan rolini umumiy ko'rsatkichini bildiradi. Ko'pgina davlatlarda makroiqtisodiy darajada soliq yukini hisoblash YaIMga ko'ra soliqlar va yig'implar umumiy summasiga nisbatan amalga oshiriladi[4]. Uning ko'rinishi quyidagicha:

$$CYu = S + T \text{ YaIM} \times 100\% \quad (1)$$

Bu yerda:

SYu – soliq yuki;

S – soliqlar;

T - to'lovlar;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Soliqning davlat va jamiyat hayotidagi roli geografik va iqlim omillariga bog'liq. Chunki omillar milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatadi va davlat iqtisodiyotini farqlash va qiyoslash imkoniyatiga ega.

Soliqqa tortish asoslariga diqqat qilish, uni puxta aniq ishlab chiqish, to'lov muddatlarini va hajmini to'g'ri belgilash adolatli soliq yukini ta'sis qilishga olib keladi.

To'rtinchidan, soliq yuki ko'rsatkichlaridan xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini belgilashda foydalaniladi. Aynan shu ko'rsatkich ishlab chiqarishga kapital qo'yish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish va pasaytirish, iqtisodiyotni tartibga solish, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish masalalarini hal etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xo'jalik sub'ektlarining iste'mol va jamg'arish jarayonlarini me'yorlashtirish, investitsiyalarni yo'naltirish kabi masalalarni hal etishda soliq yuki ko'rsatkichi katta yordam beradi.

Iqtisodiyotda nazariy jihatdan soliq yukini belgilash ikki yo'nalishda olib boriladi. Ya'ni, makro va mikro darajada belgilanadi.

Makro darajada soliq yukini ikkiga bo'lishimiz mumkin, ya'ni, umumiy, butun iqtisodiyot va aholi zimmasiga tushadigan soliq yuki. Bu ko'rsatkich umumiy bo'lib, yuqorida keltirib o'tganimizdek, YaIMga nisbatan soliqlar va to'lovlarning ulushi sifatida belgilanadi. Makro daraja butun mamlakatning soliqqa tortish tizimini bildiradi, boshqacha aytganda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini, uning soliq bosimini anglatadi. Bu o'rinda soliq yuki korxonalar, sohalar va tarmoqlarga taqsimlanadi.

Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga makro darajadagi soliq yuki ahamiyatsiz hisoblanadi. Chunki ular byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlar va to'lovlarni o'z daromadlaridan to'laydi.

Umumiy aholi zimmasidagi soliq yuki bu aholining to'laydigan barcha soliqlari yig'implarining YaIMga nisbati sifatida hisoblanadi. Aholiga solinadigan soliq yukini

dunyo tajribasi yana mikro va makro darajaga bo'lib ko'rsatadi. Mikro daraja bu bir kishining, makro daraja bu umumiy aholining soliq to'lovidir. Har bir oila soliq sub'ekti sifatida soliq yukini hisoblashi muhim hisoblanadi. Aholining soliq yuki ko'rsatkichi aholi jon boshiga solinadigan barcha soliqlarni bildiradi. Mamlakatda aholi zimmasiga to'g'ri keladigan soliq yuki xususida ham to'xtalishni lozim topdik. Chunki, mamlakatdagi soliq yukini ikki sub'ekt, ya'ni yuridik shaxs va jismoniy shaxs to'laydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq yukining asosiy qismi jismoniy shaxslarga tushadi.

Jahonning ilg'or mamlakatlari davlat byudjeti daromadlari tarkibi tahlil qilinganda, YaIM tarkibida to'g'ri soliqlar, ya'ni daromad soliqlari asosiy o'rinni egallaydi. Egri soliqlar ulushi esa, past darajada. O'zbekiston Respublikasida buning aksini ko'rishimiz mumkin. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida egri soliqlar ko'proq fiskal funksiyani bajaradi va bu davlat uchun zarurdir. Ishlab chiqaruvchilar nuqtai-nazaridan kelib chiqsak ham bu fikr o'rinlidir.

Mahsulot (ish, xizmat)larning oxirgi iste'molchisi bu jismoniy shaxslar hisoblanadi. Egri soliqlarning haqiqiy to'lovchisi ham mahsulot (ish, xizmat)larning iste'molchisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, jismoniy shaxslar o'zlari to'laydigan soliqlar va egri soliqlarni ham to'laydilar. Bundan tashqari yuridik shaxslar to'laydigan ayrim soliq turlari ham mavjudki, bular mahsulot tannarxiga kiritiladi. Mahsulot tannarxiga kiritilgan soliq to'lovlari ham borib, jismoniy shaxslar zimmasiga tushadi.

Davlat byudjeti daromadlari ko'rsatkichlaridan egri soliqlarni, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni, yuridik shaxslar tomonidan mahsulot (ish, xizmat)lar tarkibiga kiritiladigan mol-mulk va yer soliqlarini olib, ular yig'indisini olganimizda jismoniy shaxslar zimmasidagi umumiy soliq yuki kelib chiqadi yoki ular byudjet daromadlarini qancha qismini shakllantirishini ko'rish mumkin.

Aholi zimmasidagi soliq yukini aniqroq tahlil qilsak, jismoniy shaxslar to'laydigan barcha soliqlarni aholining yillik o'rtacha soniga bo'lsak, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliq summasi kelib chiqadi. Bu bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq summasini belgilaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi hisoblanadi. Soliqlar YaIMning muayyan qismini taqsimlab byudjetga tushiradi. Demak, mazkur ikki iqtisodiy kategoriya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Shu bois, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliq summasini hisoblash ham iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Biz yuqorida nazariy jihatdan yondashib, davlat byudjeti daromadlari ko'rsatkichlarini olib, ularning yig'indisini aholi soniga bo'lib topdik. Bundan tashqari aholining soliq yuki ko'rsatkichini quyidagi formula orqali ham hisoblash mumkin:

$$S_d = S : J_n \quad D : J_n \quad (2)$$

Bunda:

Sd - soliq yuki darajasi;

S - aholining barcha soliqlari;

Jn – mamlakat aholisi soni;

D – aholi olgan barcha daromadlari summasi.

Aholiga soliq yukini baholashda aholining to‘lagan barcha soliqlarining summasidan kelib chiqish lozim. Yuqoridagi formulaga asosan hisoblashning murakkabligi shundaki, aholining bevosita va bilvosita to‘lagan soliq hajmini aniqlash qiyin. Shu ma’noda aholi asosiy iste’molchi hisoblanadi va uning zimmasiga asosiy soliq yuki tushadi.

Ishchining (mehnat haqi olib ishlovchining) soliq yuki daromad solig‘idan iborat bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichdan turli mamlakatlarda daromad solig‘iga tortishni tahlil qilish uchun foydalaniladi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda yuqori hisoblanadi. Birgina shu soliq hisobiga

AQSh Federal byudjetining 45 foizidan ko‘prog‘i moliyalashtiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq yuki ularning oladigan daromadlariga qarab belgilanadi. Unga ko‘ra, soliq yuki mahsulot sotish hajmidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichga asosan foyda solig‘i belgilanadi. Shuningdek, sotishdan olingan foyda hamisha ham soliqqa tortish manbasi bo‘lib hisoblanmaydi. Shu sababli yuridik shaxsning ayrim soliqlari bu ko‘rsatkichga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Har bir soliq turi o‘z manbasidan qat’iy nazar baholash mezoniga ega.

Eng asosiysi bu – korxonalar foydasidir. Ya’ni, yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan soliqlar va to‘lovlarning foyda ko‘rsatkichiga ta’siri yoki ularning ulushi sifatida aniqlanadi. Bundan tashqari yuridik shaxslarning to‘lovlari uning sof foydasiga nisbatan ham aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formulaga tayanishimiz mumkin:

$$Sd = Df + Is + Ms + TsF \quad (3) \quad \text{yoki:} \quad Cd = Df + Is + Ms + Ts Sf \quad (4)$$

Bunda:

Sd – yuridik shaxsning soliq yuki darajasi;

Df- daromad (foyda) solig‘i;

Is- ishlab chiqarishga soliqlar;

Ms- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar uchun soliq;

Ts – tushumdan yoki aylanmadan to‘lanadigan soliqlar;

F – asosiy faoliyatdan foyda;

Sf – sof foyda

Ko‘pchilik iqtisodiy adabiyotlarda foyda yoki sof foyda ko‘rsatkichi yuridik shaxslarning soliq yukini aniq ifodalab bera olmaydi degan fikr olg‘a suriladi. Biz yuqoridagi formuladayuridik shaxsning soliq yukini aniq ifodalab beradi, degan fikrda emasmiz. Yuqoridagi formula yuridik shaxsning foyda va sof foyda ko‘rsatkichlariga soliqlarning ta’sirini qandayligini aniqlab beradi. Bu faqat yuridik shaxsga nisbatan soliq yuki va unga soliqlarning ta’sirini ifodalab beruvchi formulalarning bir yo‘nalishi

xolos.

Yuqoridagi formuladan kelib chiqqan holda yuridik shaxsning sotishdan tushgan tushum va foyda ko'rsatkichlarining shakllanish bosqichini jadvaldagi kabi ifodalashimiz mumkin.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari tarkibida yakka tartibda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari ham mavjud.

Bu tadbirkorlar yuridik shaxs sifatida emas, balki jismoniy shaxs sifatida faoliyat yuritadilar. Bu sub'ektlarda balans hisoboti yuritilmaydi. Ya'ni, maxsus soliq rejimi asosida qat'iy soliq to'laydilar.

Ularning iqtisodiy faoliyati davomida amortizatsiya ajratmasi ko'rsatkichini hisoblash imkoniyati yo'q. Shu sababli fikrimizcha ular yaratayotgan qo'shilgan qiymat tarkibida amortizatsiyani hisobga olmaslik lozim. Aslida hisobga olishning ilmiy asoslangan usuli yo'q. Shu sababli bu sub'ektlarda soliq yukini hisoblashda qo'shilgan qiymat tarkibiga amortizatsiyani qo'shmasdan hisoblashni taklif etamiz. U holda formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Qq = Mx + Ia + Es + St + F (7)$$

bunda:

Mx – mehnat haqi xarajatlari;

Ia – ijtimoiy ajratmalar;

Es – egri soliqlar;

St – boshqa soliqlar;

F – foyda.

Bu usulning afzalligi shundaki, u aniq korxonaning sohasidan qat'i nazar yakka tadbirkorlarning soliq yukini hisoblab bera oladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'p hollarda to'langan soliqlar summasi bilan korxonaning foyda ko'rsatkichiga asoslanib, soliq yuki hisoblanadi. Bunday yondashuv masalaga yanada teran qarashni talab etadi, chunki foyda soliq to'lovi manbai hisoblanmaydi.

Ko'rib chiqilgan barcha usullar xo'jalik sub'ektlarining soliq yukini va ular faoliyatiga soliqlarning ta'sirini ifodalab bera oladi. Demak, korxonaning barcha soliqlari hisobga olinishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i korxonaning iqtisodiy faoliyatiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, faqat ishchining daromadlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin, xolos. Yuridik shaxs jismoniy shaxsning daromadiga nisbatan davlatning soliq agenti sifatida munosabatda bo'ladi va soliqni byudjetga o'tkazish bilan cheklanadi. Bu soliq ishchining soliq yukini hisoblashda hisobga olinishi shart.

Soliq yukini hisoblashning bu uslubiyotlarini qo'llash tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ularning birortasi soliq yukini hisoblashning eng ma'qul varianti bo'la olmaydi. Faqatgina turli ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash nisbatan soliq yukini

aniqlashga yaqinlashadi, xolos.

Ayni paytda, soliq nazariyasi bevosita soliqlarni mahsulotning xarakteridan qat'i nazar xaridor va iste'molchi o'rtasida bo'lishni tavsiya qiladi. Shu sababli xo'jalik sub'ektlari uchun universal soliq yukini belgilash mumkin emas. Bugungi amaliyotdagi soliq yukini hisoblash usullarining har biri afzallik va kamchilik xususiyatlariga ega. Shu sababli ularning birortasi iqtisodiyot tarmoqlarida mutloq darajada soliq yukini belgilash uchun kafolat bera olmaydi.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari o'zining ishlab chiqarish xususiyatlariga ega, ya'ni, mehnat unumdorligi, materiallar bazasi, kapital aylanmasi, mahsulotning mavsumiyliги kabi xususiyatlari mavjud. Bu omillar ham yagona universal solik yukini belgilash imkonini bermaydi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq to'lovchilarga nisbatan soliq yukini oshirish (soliqlar yukini oshirish va soliqlar stavkalarini ko'tarish, soliq imtiyozlarini olib tashlash va boshqalar) natijasida dastlab soliq tushumlari oshadi va maksimum darajaga yetgandan so'ng, bu ko'rsatkichlar tusha boshlaydi. Shu sababli byudjetga tushumlar kamayib ketadi va soliq to'lovchilarning muayyan qismi tanazzulga yuz tutadi yoki ishlab chiqarish kamayib ketadi, soliq to'lovchilarning qolgan qismi esa soliq to'lashdan noqonuniy ravishda o'zini olib qochadi. Natijada yashirin iqtisodiyot yuzaga keladi.

Hozirgi kunda soliq qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritishda ko'p davlatlar imtiyozlar va chegirmalarni olib tashlash yo'lidan bormoqda, yangi to'lovlarni joriy qilishga intilmoqda. Biroq, bu hol daromadning va soliqqa tortish kapitalining keskin kamayib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortishga doir dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq to'lovchilarning ko'proq daromadlarini soliq sifatida olish iqtisodiyotga investitsiyalarning kamayib borishiga olib keladi. Agar soliq stavkasi daromadlarning 40 foiziga yetsa, u tadbirkorlikni rivojlanishiga va ishlab chiqarishning kengayishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqacha aytganda, samarali soliq tizimi daromadlarning 1/3 qismini olish bilan davlat ehtiyojini qondirishi kerak. Ayni paytda, soliq yukining aniq ko'rsatkichi makro va mikro darajada turlicha mamlakatlarda turli xil namoyon bo'ladi. Bu o'rinda gap avvalo, davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi majburiyatlar haqida ketmoqda. Soliq yuki darajasi davlat aholisining tibbiy, ta'lim, kommunal va boshka xizmatlar bilan ta'minlash, byudjet xarajatlariga bog'liq holda yuzaga keladi. Misol uchun, Shvesiyada aholi o'z daromadlarining 50 foizini davlat xazinasiga beradi va bu ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir etmayapti. Buning ajablanadigan joyi yo'q, chunki davlat soliq to'lovchilarni iqtisodiy va ijtimoiy tomondan keng himoya qilib kelmoqda.

Zero, soliq yuki aniq soliq to'lovchining faoliyatiga zarar keltirmasligi lozim. Shuning uchun davlat soliq yukini belgilashda o'rtacha ko'rsatkichlardan foydalanishi

lozim. Albatta, har bir mamlakat o'zining turli milliy xususiyatlari va ishlab chiqarishidan kelib chiqib, soliq yukini belgilaydi. Har bir mamlakatda turli xususiyatlarga ega o'n minglab faoliyat yuritayotgan korxonalar bor. Ularning har biri soliq to'lashda turlicha imkoniyatlarga ega. Shu sababli, davlatlar miqyosida soliq yukini qiyosiy tahlil qilishda va makrodarajada soliq yukini hisoblashda soliqlar va to'lovlarning YaIMga nisbatini olish orqali hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar:Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq yuki ko'rsatkichlari davlatning soliq, investitsiya va ijtimoiy siyosatini ishlab chiqishda asosiy omillardan hisoblanadi. Jumladan: mamlakat iqtisodiyotidagi soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ifodalaydi.

Shu bilan birga olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligiga, boshqa tomondan esa, davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli, soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish bilan bog'liqdir;

davlat o'zining ijtimoiy siyosatini ishlab chiqishda soliq yuki ko'rsatkichiga asoslanadi va bu uning uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi;

tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik sub'ektlarida soliq yuki ko'rsatkichini hisoblashda aniq bir yagona uslubiyot yo'q. Uni hisoblash va tahlil qilish uchun bir necha usullarga asoslanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.